

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLOYEV ASLIDDIN JUNAYDULLOYEVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING USLUBIY
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Fan doktor (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the Dostoral (DSc) dissertation abstrast

Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich

Agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish 3

Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллоевич

Совершенствование методологических основ управления деятельности агрокластеров..... 33

Abdulloev Asliddin Junaydulloevich

Improving the methodological foundations of the management of the activities of agroclusters..... 65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 69

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLOYEV ASLIDDIN JUNAYDULLOYEVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING USLUBIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Iqt620 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy maslahatchi:	Xamidov Obidjon Xafizovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich iqtisodiyot fanlari doktori, akademik Qodirov Abdurashid Majidovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Arabov Nurali Uralovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti


Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.I.72.05 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «30» Urtab kuni soat 16:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.)


Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (453 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, faks.: (99 865) 224-57-00, e-mail: buxdu_arm@umail.uz


Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «4» Urtab kuni tarqatildi.

(2024-yil «4» Urtab daqi № 5 raqamli reyestr bayonnomasi).


B.N. Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor


D.Sh. Yarmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.n., dotsent


A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholining o‘shib borayotgan ehtiyojlarini samarali qondirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Agroklasterlar qishloq xo‘jaligida keng ko‘lamli innovatsion loyihalarni amalga oshirish hisobiga sohani intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tkazish imkonini bermoqda”¹. Bu esa agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Jahonda agroklasterlar boshqaruvining uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda agroklasterlar innovatsion boshqaruvi amaliyotini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini, ularning boshqaruv samaradorligini baholash uslubiyotini, agroklaster boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ulardagi integratsion munosabatlarni optimallashtirish orqali agroklaster tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlarining kapitalizatsiyalashuv darajasini oshirish hisobiga moliyaviy barqarorligini ta‘minlash kabilarga e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli, iqtisodiy adabiyotda agroklaster boshqaruvining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish orqali hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar inobatga olib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “...qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko‘proq ahamiyat bermoqdamiz”². Ushbu holat mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining rivojlanish salohiyatidan samarali foydalanishda agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va uning boshqaruvi amaliyotini takomillashtirishga ustuvorlik qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-sonli “Agrar sohada ilm-fan,

¹Ketels Ch., Lindqvist G. and Solvell O. (2012), Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. The Role of Cluster Organizations. The Cluster Observatory. Center for Strategy and Competitiveness. October 2012. 50 p. URL:https://clustercollaboration.eu/sites/default/files/documentstore/Strengthening_Clusters_and_Competitiveness_in_Europe.pdf

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Qishloq xo‘jaligi hodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigi.15.12.2020. <https://www.navoiwet.uz/tashkilot-hakida/yangiliklar/566-zbekiston-1179ishlo1179-hzhali-hodimlariga.html>

ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Jahonda agroklaster boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish orqali agroklasterlarning ilm-fan yutuqlaridan qishloq xo'jaligida foydalanish ko'lamini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar Birlashgan millatlar tashkiloti; Yevropa Iqtisodiy komissiyasi; Jahon banki guruhi; Yevropa Klaster observatoriyasi; Klaster markazi (Irlandiya); Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (AQSh); Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash vazirligi (Hindiston) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Agroklasterlar boshqaruvi amaliyotini rivojlantirish, agroklasterlarning innovatsion boshqaruv amaliyotining tashkiliy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar: agroklasterlar boshqaruvida ilm-fan-ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish (OECD); agroklasterlar boshqaruvi amaliyotida ilmiy tadqiqot institutlari, innovatsion markazlar, oliy ta'lim muassasalari bilan integratsion munosabatlarni kuchaytirish asosida fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (IWGTT); boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sir doiralarni baholash asosida sohani intensiv rivojlantirish imkonini beruvchi boshqaruv uslubiyotini shakllantirish (WIPO) yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

³ Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan: Руководство по оценке эффективности инвестиций. – М.: Интерэкспресс; ЮНИДО (UNIDO), 1998. – 197-с.; Шарп, У. Инвестиции / У. Шарп, Г. Александр, Дж. Бели. – М.: Инфра-М, 2001. – 1028-с.; На пути к технологической трансформации стран СПЕКА: инновационный императив для устойчивого развития. Справочно-аналитический документ для второй сессии Рабочей группы СПЕКА по инновациям и технологиям для устойчивого развития, 20-21 октября 2021 года, Бишкек (Кыргызстан), и шестнадцатой сессии Руководящего совета СПЕКА, 19 ноября 2021 года, Ташкент (Узбекистан). 60 с.; Solvell O. (2008). Clusters. Balancing evolutionary and constructive forces. Ivory Tower Publishers, Stockholm, Sweden. 138 p. URL: <https://irp-cdn.multiscreensite.com/bcb8bbe3/files/uploaded/redbook.pdf>; Spatial analysis, industry and the industrial environment. Progress in research and applications. Vol. 1. Industrial systems / Edited by F.E.I. Hamilton and Linge G.J. R. Chichester, N.Y. Brisbane, Toronto: Wiley, 1979.; Porter, M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. URL: <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>; Ketels Ch., Lindqvist G. and Solvell O. (2012), Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. The Role of Cluster Organizations. The Cluster Observatory. Center for Strategy and Competitiveness. October 2012. 50 p. URL: https://clustercollaboration.eu/sites/default/files/document-store/_Strengthening_Clusters_and_Compelitiviness_in_Europe.pdf; Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Agricultural Management, Marketing and Finance Occasional Paper № 25. Food and Agriculture Organization of The United Nations (FAO). Rome, 2010. 105 p. URL: <https://www.fao.org/3/i1560e/i1560e.pdf>; European Commission. Internal Market, Industry, Entrepreneurship and SMEs. https://single-market-economy.ec.europa.eu/index_en; Feldman V.P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition // European Economic Review. 1999. P. 31–39

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishga oid ilmiy-nazariy qarashlarning rivojlanish bosqichlari, agroklasterlar boshqaruvida innovatsion loyihalardan foydalanish samaradorligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillar, agroklaster boshqaruvining uslubiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari uzoq xorijlik R. Klaudio, R.G. Kuper, M. Delgado, D. Doloreuks, I. Laur, G. Linden⁴ kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yaqin xorijlik A.Yu. Belyakova, V.V. Moiseev, V.V. Demichev, A.V. Ilin, A.R. Kulov, M.N. Lisin⁵ kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishda agroklasterlarning tutgan o'rni, agroklasterlarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, agroklasterlarda innovatsion boshqaruvni tashkil etishning ilg'or xorij tajribasidan bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik B.N. Navruz-Zoda, Ch.M.Murodov, F.Q.Qayumov, T.X.Farmanov, A.M.Jo'rayev, Q.A.Choriyev, N.S.Xushmatov, R.H.Husanov, F.X.Nazarova, O.Jumayev, R.T.Toshmatov, X.S.Hushvaqtova, Sh.Ergashxodjayeva, R.I. Isroilov, A.S.Altiyev, G.T.Ismoilova, K.K.Mamadaliyev, U.Saidaxmedov⁶ kabi iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida agroklasterlarni tashkil etish

⁴Claudio R. and Riccardo V. (2008). Foresight and innovation in the context of industrial clusters: the case of some Italian districts. *Technological Forecasting & Social Change*, vol. 75, № 6, pp. 817-833; Cooper R.G. Third-Generation New Product Process // *Journal of Product Innovation Management*. – Vol. 11, - № 1. – January 1994. – P. 3-14; Delgado M., Michael E. Porter and Stern S. Clusters and Entrepreneurship. *Journal of Economic Geography*, 2010. Vol. 10, Issue 4. pp. 495-518; Doloreux D. and Shearmur R. (2009) maritime clusters in diverse regional context: the case of Canada. *Marine Policy*. Vol. 33, № 3. pp. 520-527.; Laur I., Klofsten M. and Beinkowska D. Catching Regional Development Dreams: A Study of Cluster Initiatives as intermediaries // *European Planning Studies: Taylor & Francis (Routledge)* – 2012. - № 20 (11). – 22 p. URL: <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:545594/FULLTEXT01.pdf>; Linden G. Dedrick J. Kraemer K.L. Innovation and job creation in a global economy: the case of Apple's iPod. *Journal of International Commerce and Economics*. – 2011. № 3. – P. 223-239. <https://www.rrojasdatabank.info/innovation.pdf>

⁵Белякова А.Ю., Бузина Т.С., Вашукевич Е.В., Иванова Я.М. Модели кластеров сельскохозяйственных предприятий с учетом экстремальных природных явлений. / *Современные технологии. Системный анализ. Моделирование*, № 3, 2009. – с. 233-239.; Моисеев В.В. Оценка инвестиционных процессов в отраслях АПК [Электронный ресурс] / В. В. Моисеев, А.В.Моисеев, М.А.Осмоловская // *Научный журнал КубГАУ*. – 2015. – № 111(07). – Режим доступа:<http://ej.kubagro.ru/2015/07/pdf/85.pdf>.; Демичев В.В. Анализ предпосылок формирования аграрных кластеров // *Экономика сельского хозяйства*. 2012. № 2. с. 56-66; Ильин А.В. Формирование механизма интеграции предпринимательских структур в аграрном секторе экономики // *Социально-экономических явления и процессы*. – 2012. – № 2. – с. 57-62; Кулов А.Р. Кластеры – экономическая реальность// *Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий*. 2011. №10. С. 50.; Лисин М. Н. Создание инфраструктуры регионального кластера субъектов малого предпринимательства АПК в форме аграрного инфраструктурного парка // *Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий*. 2013. № 4. С. 83.

⁶Navruz-Zoda B.N. Servis sohasi iqtisodiyotini klaster usulida barqaror rivojlantirish\Servis sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: nazariya, metodologiya va amaliyor (jamoaviy monografiya).I.f.d.N.S.Ibragimov ilmiy tahriri ostida. Chisinau (Moldova), Globe Edit. 2022. 217 b. B:7-18.; Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etishning nazariy asoslari. // *Iqtisod va moliya ilmiy jurnali*. 2014. № 2. 19-25-betlar.; Isroilov R.I., Hojimatov R.R. Pillachilik sohasida klaster tizimini tashkil etishning ahamiyati va uning o'ziga xos xususiyati. *NamDU ilmiy axborotnomasi*. – Научный вестник НамГУ 2019 yil. 4-son, 102-103-b.; Altiev A.S. Yerdan foydalanish iqtisodiyoti. *Darslik*. T.: - 2019, 372 b.; Ismoilova G.T. Oziq-ovqat ta'minoti zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba. *Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali*. № 5, 2022 y. 400-410 betlar; Мамадалиев К.К. Инновации как фактор экономического развития аграрного сектора // *Life Sciences and Agriculture*. 2021. №1 (5). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-kak-faktor-ekonomicheskogo-razvitiya-agrarnogo-sektora>; Saidaxmedov U. Klaster nazariyasi va unga amaliy

va boshqarishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning evolyusiyasi, agroklasterni tashkil etish zaruriyati, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, agroklasterni faoliyatini innovatsion rivojlanish imkoniyatlari o'rganilgan. Ammo agroklasterni faoliyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirishning uslubiy asoslari tizimlashtirilgan holda, kompleks, tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili agroklasterni faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, agroklasterni boshqaruvida innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, agroklasterni mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda integratsion munosabatlarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda, OT-F1-04(08)-raqamli "Kooperatsiya va integratsiya munosabatlari asosida fermer xo'jaliklarida raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishning maqbul modellarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental davlat loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agroklasterni faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agroklasterni faoliyatini tashkil etish va boshqarishning nazariy-kontseptual asoslarini, uni amalga oshirishning tamoyillari va usullarini tadqiq etish;

agroklasterni faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini o'rganish;

jahonda amal qilayotgan agroklasterni faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish modellarini tadqiq etish;

agroklasterni faoliyatini tashkil etish hamda uni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasini qiyosiy taqqoslash;

O'zbekistonda agroklasterni faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlanishida agroklasterni tutgan o'rnini baholash va ularni boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

agroklasterni faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

o'rta muddatli istiqbolda agroklasterni faoliyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha muqobil stsenariyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan agroklasterni boshqaruvi amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiyotini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o'rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq hududlarini rivojlantirish uchun ehtiyojlarni baholash yondashuvi qoniqarililik holatini tavsiflovchi integral ko'rsatkichlarga ustuvorlik bergan holda tashkiliy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion hamda tabiiy-ekologik samaradorliklar asosida kompleks baholash orqali takomillashtirilgan;

uslubiy jihatdan agroklasterlarni innovatsion boshqaruvda maxsus qo'llab-quvvatlash jamg'armalari (co-finance)ni joriy etish asosida xususiy ishlanma va tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan tashkilotlarda loyihalarni davlat va mahalliy byudjet (30 %), "qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash" fondi (30 %), qishloq xo'jaligi sub'ektlarining o'z mablag'lari (40 %) hisobidan uch yoqlama moliyalashtirish taklifi asoslangan;

uslubiy jihatdan agroklasterlar boshqaruvida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining maqbul varianti sifatida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyot (GAEP)ga ustuvorlik berish taklifi asoslangan;

"Qishloq xo'jaligi fundamental tadqiqotlar markazi" (Center of Excellence) faoliyatini yo'lga qo'yish orqali agroklasterlar bilan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari o'rtasida ilmiy-innovatsion hamkorlikni rivojlantirish taklif etilgan;

qishloq xo'jaligidagi qo'shilgan qiymat zanjirining o'sish sur'ati bo'yicha 2024-2027 yillarga mo'ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

agroklasterlar faoliyatni tashkil etish hamda uni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasini qiyosiy taqqoslash va undan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

agroklasterlar boshqaruvi amaliyotini takomillashtirishda mulkiy munosabatlarda xususiy mulkchilikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uch bosqichli xususiylashtirish amaliyoti ilmiy asoslangan;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali agroklasterlar egaligidagi yer resurslaridan samarali foydalanish sxematik tuzilishi ishlab chiqilgan;

agroklaster boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ilmiy asoslangan;

agroklaster faoliyatini innovatsion boshqarishda "Kombinatsion-integratsion ochiq innovatsiyalar" mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi,

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz agroklastlar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, agroklastlarni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining qamrov darajasini oshirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni agroklastlar boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, jumladan, agroklastlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan davlatning maqsadli dasturlari, konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Menejment”, “Korxonalar iqtisodiyoti”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Mikroiqtisodiyot” fanlarining ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta’lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroklastlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

qishloq hududlarini rivojlantirish uchun ehtiyojlarni baholash yondashuvi qoniqarlilik holatini tavsiflovchi integral ko‘rsatkichlarga ustuvorlik bergan holda tashkiliy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion hamda tabiiy-ekologik samaradorliklar asosida kompleks baholash orqali takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni, VIII bo‘lim, 9-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 23 avgustdagi 01/22-581-son ma'lumotnomasi). Agroklastlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslari nomli uslubiy tavsiyasini respublika miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 6 noyabrdagi 01/22-849-son tavsiyanomasi). Mazkur baholash amaliyotidan foydalanish asosida agroklastlar faoliyatidagi mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni o‘z vaqtida samarali hal etish orqali boshqaruv samaradorligi yaxshilanishi hisobiga daromadlari hajmi o‘rta hisobda 5,0 foizga ortgan;

uslubiy jihatdan agroklastlarni innovatsion boshqaruvda maxsus qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari (co-finance)ni joriy etish asosida xususiy ishlanma va tadqiqotlar bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlarda loyihalarni davlat va mahalliy byudjet (30 %), “qishloq xo‘jaligi yerlari holatini yaxshilash” fondi (30 %), qishloq xo‘jaligi sub'ektlarining o‘z mablag‘lari (40 %) hisobidan uch yoqlama moliyalashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6

iyuldagi PF-165 sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonining 1-ilovasi 4.2-bandining 11-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 23 avgustdagi 01/22-581-son ma'lumotnomasi). Agroklastlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslari nomli uslubiy tavsiyasini respublika miqiyosida ommalashtirish to‘g‘risida (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 6 noyabrdagi 01/22-849-son tavsiyanomasi). Ushbu taklifni “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” tarkibiga kiruvchi agroklastlar amaliyotiga joriy etilishi natijasida zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib, foydalanilayotgan ekin maydollarining unumdorligini tizimli monitoring qilish bilan birgalikda, degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlarini holatini yaxshilash va ularning zararlanishini oldini olishga erishildi;

uslubiy jihatdan agroklastlar boshqaruvida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining maqbul varianti sifatida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP)ga ustuvorlik berish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi Pf-5853 son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmonini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 23 avgustdagi 01/22-581-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot ishi natijasida davlat-xususiy sherikligi shaklida yerlardan samarali foydalanishda monitoring qilish va ularning muhofazasi kuchaytirilgani natijasida iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik samaradorlikka erishildi;

“Qishloq xo‘jaligi fundamental tadqiqotlar markazi” (Center of Excellence) faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali agroklastlar bilan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida ilmiy-innovatsion hamkorlikni rivojlantirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 iyuldagi PQ-216-sonli “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 3-ilovasi 12-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 23 avgustdagi 01/22-581-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklast boshqaruvdagi innovatsiyalarga bo‘lgan talabga mos keladigan yangi innovatsion ishlanmalarni izlash, ularni qayta ishlash va amaliyotga joriy etishning samaradorligini 15 foizga oshirishga erishiladi;

qishloq xo‘jaligidagi qo‘shilgan qiymat zanjirining o‘shish sur‘ati bo‘yicha 2024-2027 yillarga mo‘ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” tarkibiga kiruvchi agroklastlar faoliyatini boshqarish jarayonida foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 23 avgustdagi 01/22-581-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy qishloq xo‘jaligida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat zanjirida agroklasterning ishtirokini o‘rta hisobda 5,3 foizga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan oliy o'quv yurtlarida "Menejment", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Iqtisodiyot nazariyasi" kabi fanlarning ishchi o'quv dasturlarini takomillashtirishda va ta'lim berish jarayonida foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta ilmiy monografiya hamda 1 ta darslik nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 202 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik dapajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Agroklasterlar faoliyatini boshqarishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda agroklasterlar faoliyatini tashkil etish, uni boshqarishga bag'ishlangan ilmiy qarashlar tahlil etilgan, agroklaster faoliyatini tashkil etish tamoyillari va usullari o'rganilib, uning zaruriyati ilmiy asoslangan. Jumladan, agroklaster boshqaruvi samaradorligini baholashning uslubiy asoslari tahlil etilgan. Agroklaster iqtisodiy kategoriyasiga zamonaviy agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida vujudga keladigan ilm-fan, ishlab chiqarish, xizmatlar o'rtasidagi integratsion munosabatlarning mahsulot ishlab chiqarish jarayonini to'liq qamrab oluvchi mualliflik tarifi hamda agroklaster boshqaruvi samaradorligini tashkiliy ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion va tabiiy-ekologik samaradorlik ko'rsatkichlaridan tashkil topgan kompleks baholash usuli ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligini agroklasterli boshqaruvi amaliyotining tub mohiyatini tushunib yetish uchun, avvalo, uning asosini tahlil qilish lozim. Umuman olganda, agroklasterli boshqaruv "klaster" atamasi bilan bog'liq holda shakllangan. Klaster atamasi ingliz tilidagi "cluster" so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan turli, o'zaro bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlarning birlashishi, ularning bir

nuqtada (yoki joyda) to'planishini anglatadi.⁷ Shu bilan birgalikda, ma'lum bir darajadagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan turli guruhlarni ham anglatadi.

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterlar namoyon bo'lishining quyidagi uch xususiyati ajratib ko'rsatiladi:

- agroklasterlar yuqori agregatlashuv darajasiga ega bo'lgan tarmoqlararo integratsion birlashma sifatida namoyon bo'ladi;

- agroklasterlar qishloq xo'jaligi bilan bog'liq holda ilmiy faoliyat yurituvchi ilmiy tadqiqot muassasalari, shuningdek, turdosh va sohaga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardagi iqtisodiy faoliyatning hududiy jihatdan chegaralangan shakli hisoblanadi (bunda bir hududda tashkil etilgan hududiy agroklasterlar faoliyati nazarda tutilmoqda);


- vertikal tarzda tashkil etilgan agroklasterlar – bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni iste'molga yaroqli holatga kelgunga qadar bo'lgan barcha ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etuvchi turli tarmoq vakillari manfaatlarining birlashuvi nazarda tutiladi.⁸ Shuningdek, agroklasterlar faoliyati uchun xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar ajratib ko'rsatiladi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliyashtirish;

- tarmoqning xo'jalik yurituvchi subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar;

- turli tarmoqlar o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o'zaro aloqalarning shakllanishi.⁹

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterli boshqaruv sohasiga oid ilmiy qarashlarni tizimli tahlil qilish orqali qishloq xo'jaligini klasterli yondashuv asosida boshqarish 1-rasmda keltirilgan tartibdagi texnologik zanjirni shakllanishi orqali namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelindi.



1-rasm. Agroklaster faoliyatini boshqarishning texnologik zanjiri¹⁰

Ishlab chiqilgan agroklasterlar faoliyatini boshqarishning texnologik zanjiri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tortib, uni sanoat tarmoqlarida qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotni saqlash, yetkazib berish, qadoqlash kabi xizmatlar

⁷Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etishning nazariy asoslari. // Iqtisod va moliya ilmiy jurnali. 2014. № 2. 19-25-betlar.

⁸Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практика управления. 2003. № 5. с. 40.

⁹Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etishning nazariy asoslari. // Iqtisod va moliya ilmiy jurnali. 2014. № 2. 19-25-betlar.


¹⁰Muallif tomonidan tuzilgan.

bilan birgalikda, uni iste'molchiga yetib borgunga qadar davrni o'z ichiga olganligi bilan xarakterlanadi.

Qishloq xo'jaligida agroklasterni tashkil etilishi sohaning global darajadagi raqobatbardoshligini oshirishi, milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini kengaytirishi bilan birgalikda, innovatsion rivojlanish samaradorligini ta'minlayotgani borasidagi ilmiy qarashlarga asoslangan holda zamonaviy agroklasterning tarkibiy tuzilishi 2-rasmda keltirilgan tartibda bo'ladi, degan xulosaga kelindi.

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterni faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish asosida unga mualliflik tarifi ishlab chiqildi. Fikrimizcha, agroklasterni – zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi xomashyo bazasi hisoblangan sanoat tarmoqlari, ilmiy tadqiqot institutlari, moliyaviy tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari, jamoatchilik tashkilotlari, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi integratsion munosabatlarga asoslangan ma'lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha turli korxonalar va tashkilotlar majmuasidan tashkil topgan hududiy birlashgan xo'jalik yuritish shakli hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini agroklasterni boshqaruv esa unga a'zo bo'lgan tarkibiy korxonalarining umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xo'jalik faoliyati yuritish bo'yicha qarorlarni qabul qilinishida o'z aksini topadi. Shu bilan birgalikda, agroklasterni boshqaruv qishloq xo'jaligida innovatsion faollik darajasini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.



2-rasm. Qishloq xo'jaligida zamonaviy agroklasterning tarkibiy tuzilishi¹¹

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterni faoliyatini boshqarish quyidagi belgilar orqali qishloq xo'jaligi faoliyati yurituvchi boshqa iqtisodiy subyektlardan farqlanadi:

- agroklasterni tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari guruhining umumlashgan holdagi tashqi bozordagi ishtirokini kengaytirishga yo'naltirilganligi;

¹¹Muallif tomonidan tuzilgan.

- agroklaster faoliyati o'zi joylashgan hududdagi qishloq xo'jaligini rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilganligi;

- agroklasterni boshqarishda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlardan foydalanish orqali uning tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari, jumladan, boshqa turdagi korxonalar va tashkilotlarning agroklaster faoliyatini rivojlantirishdagi ishtirokini kengaytirishi;

- agroklasterga a'zo bo'lgan qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasida barqaror ichki ta'minot zanjirini shakllanishi.¹²

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterlar faoliyatini samarali boshqarish usullarini tanlashda uni tashkil etish tamoyillarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida agroklasterlar faoliyatini tashkil etishning 3-rasmda keltirib o'tilgan tamoyillari o'zaro farqlanadi.

Agroklaster faoliyatini tashkil etish zaruriyati va uning tamoyillarini tadqiq etish asosida uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

- agroklaster faoliyatini tashkil etish orqali mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ortadi;

- agroklaster faoliyatini boshqarish raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi;

- agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishda ular faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-texnologik va innovatsion tamoyillariga asoslaniladi;

- agroklaster faoliyatini rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uning barcha ishtirokchilari birdek manfaatli bo'lishi lozim;

- agroklaster tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari yagona integratsion birlashma manfaatlariga to'liq mos kelishi lozim;

- agroklaster faoliyatini boshqarishda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan to'liq foydalanish bo'yicha tegishli choralar ko'rib borish orqali global raqobatbardoshlik darajasini oshirishga erishiladi.

Agroklaster faoliyati turli qishloq xo'jaligi subyektlari va boshqa tarmoq vakillari o'rtasidagi chuqur integratsion munosabatlarga asoslanganligini, jumladan, taraqqiy etgan va jadal rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsion rivojlanishga ustuvorlik qaratilayotganligi iqtisodiyotning real sektori bilan ilm-fan sohasi va ta'lim xizmatlari o'rtasidagi integratsion munosabatlarni tobora chuqurlashtirib borayotganligini inobatga olgan holda M. Delgado¹³, I. Laur¹⁴, S.A. Tumenova¹⁵, Ye.A. Gorodeskiy¹⁶, A.V. Ilin¹⁷,

¹²Porter, M. E(1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, November-December: 77-90

¹³DelgadoM., MichaelE. PorterandSternS. ClustersandEntrepreneurship. Journal of Economic Geography, 2010. Vol. 10, Issue 4. pp. 495-518


¹⁴ Laur I., Klofsten M. and Beinkowska D. Catching Regional Development Dreams: A Study of Cluster Initiatives as intermediaries // European Planning Studies: Taylor & Francis (Routledge) – 2012. - № 20 (11). – 22 p. URL: <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:545594/FULLTEXT01.pdf>

¹⁵ Туменова С.А., Расумов В.Ш. Модели развития интеллектуального капитала в региональном инновационном кластере // Экономика и предпринимательство – 2022. – № 5. – с. 391-394

¹⁶ Городецкий А.Е., Караваева И.В., Лев М.Ю. Экономическая безопасность России в новой реальности. // Коллективная монография. – М.: ИЭ РАН, 2021. – 325 с.

¹⁷ Ильин А.В. Формирование механизма интеграции предпринимательских структур в аграрном секторе экономики // Социально-экономических явления и процессы. – 2012. – № 2. – с. 57-62

T.X. Sozaeva¹⁸, S.N. Semenov¹⁹ kabi iqtisodchi olimlar agroklastlar boshqaruvi samaradorligini aniqlashda sinergetik samarani baholashga e'tibor qaratganlar.



3-rasm. Agroklastlar faoliyatini tashkil etish tamoyillari²⁰

Tahlillarga ko'ra, sinergetik yondashuv asosida agroklastlar boshqaruvi samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanilgan:

- agroklastlar tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari daromadlari hajmining ortishi;
- agroklastlar tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarining xarajatlari hajmining pasayishi;
- agroklastlar tarkibiga qo'shilganligi hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlari uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining ortishi;
- qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatining ortishi.

Zamonaviy menejment nazariyalarida boshqaruv samaradorligini baholashda xo'jalik faoliyati yuritishning yakuniy natijalarini tahlil qilish e'tiborga olinadi.²¹ Jumladan, bugungi kunga qadar iqtisodiy adabiyotda barcha turdagi korxonalar va tashkilotlar boshqaruvi samaradorligini baholash imkonini beruvchi yagona yondashuv to'liq shakllanib ulgurmagan.²² Buning sababi har bir mamlakat ijtimoiy-

¹⁸ Sozaeva T.X., Tumenova S.A. Problemy razvitiya integratsionnykh protsessov v yuzhnom makroregione // problemy i perspektivy sotsialno-ekonomicheskogo i nauchno-texnologicheskogo razvitiya yuzhnykh regionov: Materialy Vserossiyskoy nauchnoy konferentsii. Rostov-na-Donu: Yuzhnyy nauchnyy tsentr RAN. 2009. – s. 303-305


¹⁹ Semenov S.N., Rubtsova V.N., Rjevskaya M.Ya. Voprosy klasternoy teorii agropromyshlennoy integratsii v upravlenii ustoychivym razvitiem APK i selskiykh territoriy // Nauchnoye obozreniye: teoriya i praktika. – 2021. – № 1. – s. 219-247.

²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

²¹ Stepanov A.S. Metodika i kriterii otsenki effektivnosti upravleniya hozyaystvennoy deyatelnostyoo proizvodstvennoy organizatsii // Vestnik PAГС. 2015. № 3(48). – s. 141-147

²² Yarkina N.N. Teoreticheskiye aspekty otsenki effektivnosti upravleniya predpriyatiem // Problemy ekonomiki. 2014. № 3. – s. 279-285

iqtisodiy jihatdan rivojlanish bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi.



4-rasm. Agroklaster boshqaruvi samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti²³

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatimizda agroklaster boshqaruvi samaradorligini baholashning milliy uslubiyotini ishlab chiqish zarur, degan xulosaga kelindi. Bunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga asoslanish talab etiladi. Ushbu vaziyatni inobatga olib, agroklaster boshqaruvi samaradorligini kompleks baholash uslubiyotini shakllantirdik (4-rasmga qarang). Bunda tashkiliy ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion va tabiiy-ekologik samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishining **“Agroklaster boshqaruvini tashkil etishning jahon tajribasi va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida jahondagi agroklaster faoliyatini tashkil etish hamda ularni boshqarish modellari o'rganilgan. Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda agroklasterlar faoliyatini boshqarish bo'yicha jamlangan tajribalarni qiyosiy tahlil qilish asosida ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. Agroklasterlar boshqaruvida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

adabiyotda agroklasterlar boshqaruvini tashkil etish va boshqarishning “Bazaviy”, “Klassik” va “An'anaviy” modellari o'zaro farqlanadi. Mazkur modellarning o'zaro farqli jihati boshqaruv amaliyotining mustaqilligi va undagi davlatning aralashuvi, agroklaster tarkibiga subyektlari o'rtasida o'zaro integratsion munosabatlarga kirishish shakllarida namoyon bo'ladi.

Agroklaster faoliyatini tashkil etish va boshqarishning “Bazaviy”, “Klassik” va “An'anaviy” modellarining umumiy xususiyati ular M. Porterning “Raqobatbardoshlik rombi” kontseptsiyasiga asoslangan holda, mahsulotning global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruvga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, har uchchala modelda agroklaster innovatsion boshqaruv amaliyotiga

²³Muallif tomonidan tuzilgan.

ixtisoslashishi lozimligiga ustuvorlik qaratilgan. Bunda kasbiy va oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlarining agroklastar tarkibiy komponenti sifatida kelitirib o'tiligi uning innovatsion salohiyatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga asos bo'lishi ilmiy asoslangan.

Quyida keltirilgan 1-jadvalda taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida klasterlarning rivojlanishi va tashkil etilishi bo'yicha xususiyatlar bayon etilgan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda agroklastarlar faoliyatini tashkil etishda bir nechta yirik agrar korxonalar faoliyati bilan kichik qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini integratsiyalash amaliyoti keng tarqalgan. Bu orqali agroklastar faoliyatining bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezda moslashuvchanligi ta'minlanadi.

Iqtisodiy adabiyotda taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, AQSH, G'arbiy Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari amaliyoti har qanday mamlakatda agroklastar faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarblik ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Taraqqiy etgan mamlakatlarda klasterlarning rivojlanishi va tashkil etish xususiyatlari²⁴

Rivojlanish xususiyati	Tashkiliy xususiyati
Klasterlar – avval ham real davrda ham o'sish nuqtasi hisoblanadi.	Davlat qishloq joylarda agroklastarlarni tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali sohadagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini ta'minlashga erishadi.
O'zaro bog'liq (bevosita yoki bilvosita) bo'lgan tarmoqlardagi iqtisodiy subyektlarning jamlanishi.	
Hududiy jihatdan o'zaro yaqin joylashuv	Agroklastar faoliyatida davlat ishtiroki: - transaksion xarajatlarning ma'lum bir qismini kompensatsiyalash (aralash moliyalashtirish). - davlat va xususiy sheriklik asosida sohadagi loyihalarni moliyalashtirish (riskni kamaytirish, texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash).
Agroklastar tarkibiy korxonalar va tashkilotlarining turli-tumanligi (yirik kompaniyalar, kichik va o'rta biznes, ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari, assotsiatsiyalar, innovatsion infratuzilma va h.k.)	
Rasmiy va norasmiy o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqur o'rnatilishi.	Agroklastar ishtirokchilari klaster faoliyatini boshqarish va ular o'rtasidagi integratsion munosabatlarni rivojlanishini ta'minlash maqsadida boshqaruv organlarini shakllantirishi zarur.
Assotsiatsiyalar, uyushmalar kabi yirik birlashmalarning hamkorlik aloqalarining rivojlanishi.	

Ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan mazkur mamlakatlar amaliyoti model sifatida ham baholanib, agroklastarlarni rivojlantirishning AQSH, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo modellari deb ham atalishini kuzatishimiz mumkin. Mazkur mamlakatlarda agroklastarlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyoti "Bazaviy", "Klassik" hamda "An'anaviy" modellariga asoslangan, mamlakat qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

²⁴Muallif tomonidan tuzilgan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agroklastlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari 2-jadvalda keltirib o‘tilgan rivojlanish bosqichlariga ega hisoblanadi.

MDH mamlakatlarida agroklastlar faoliyatini tashkil etish orqali yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga erishilmoqda.

2-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agroklastlarni tashkil etish va boshqarishning rivojlanish bosqichlari²⁵

Rivojlanish bosqichlari (davri)	Rivojlanish bosqichi xususiyatlari
I bosqich (1980-1990 y.y.)	Dastlabki agroklastlar ikki yoki undan ortiq qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasida integratsion munosabatlarga kirish orqali qishloq xo‘jaligidagi kooperatsiyalashuvning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga asoslanishi bilan xarakterlanadi.
II bosqich (1990-1999 y.y.)	Agroklastlar tarkibiga kiruvchi ishtirokchilar soni vertikal va gorizontal ravishda kengayib, tarmoqlararo integratsiyalashuv jarayonlari hududiy ixtisosliklarga asoslangan holda namoyon bo‘lgan.
III bosqich (2000-2007 y.y.)	Yevropa Komissiyasi tomonidan mintaqada mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini klasterizatsiyalashni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratila boshlandi. 2006-yilga kelib “Yevropa mamlakatlarida klasterizatsiyalash bo‘yicha manifest” qabul qilindi.
IV bosqich (2008-2012 y.y.)	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida agroklastlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, jumladan, moliyaviy dastaklar (soliq imtiyozlari, subsidiya va dotatsiya ajratish) orqali ular faoliyatini rivojlantirishga ustuvorlik qaratildi. 2008-yilda “Yevropa klasterlar to‘g‘risidagi memorandum” qabul qilinib, Yevropa Klaster observatoriyasi tashkil etildi.
V bosqich (2013-2020 y.y.)	Agroklastlar innovatsion boshqaruvini rivojlantirishga ustuvorlik qaratildi. Bunda “Aqlli ixtisoslashuv”, “O‘shish nuqtalari” asosida hududiy agroklastlar tashkil etilib, ularning global raqobatbardoshligini oshirishga e‘tibor qaratildi.
VI bosqich (2021 y.dan h.v.)	Inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan yarimtayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, agroklastlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan xususiyatlarini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarga ahamiyat qaratilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Belorussiyada nafaqat qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan, balki boshqa turdagi yerlar ham umuman xususiyashtirilmagan.

Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonda yerdan foydalanish huquqiy avloddan avlodga qoldirilishi davlat tomonidan kafolatlangan. O‘zbekiston, Turkmaniston va Belorussiyada esa nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham yer resurslarini sotish yoki sotib olish ta’qiqlangan.

²⁵ Мешков И.А. Основные черты кластерной политики ЕС // Современная Европа, 2020. № 1. – с. 182-190; Ismoilova G.T. Oziq-ovqat ta’minoti zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba. Iqtisodiyot va ta’lim ilmiy jurnali. № 5, 2022-y. 400-410 betlar ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu holat mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishda bozor iqtisodiyotining muhim komponenti hisoblangan xususiy mulkchilikning rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishning mulkchilik shakllarini rivojlantirishda bosqichma-bosqich xususiylashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (3-jadvalga qarang).

3-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishda xususiy mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish bosqichlari²⁶

Yer resurslaridan foydalanishni xususiylashtirish bosqichlari	Dehqon xo‘jaliklarini	Fermer xo‘jaliklari	Amalga oshirish mexanizmi
I bosqich	5 yilgacha bo‘lgan muddatda yer resurslari xususiylashtirish (50-100 gektargacha)	5 yilgacha bo‘lgan muddatda yer resurslari xususiylashtirish (100-200 gektargacha)	Sinov tariqasida 5 yilgacha bo‘lgan muddatda yer resurslarini xususiylashtirish
II bosqich	10 yilgacha bo‘lgan muddatda yer resurslarini xususiylashtirish (150-300 gektargacha)	10 yilgacha bo‘lgan muddatda yer resurslarini xususiylashtirish (300-600 gektargacha)	Sinovdan ijobiy o‘tgan, egaligidagi yerlarning texnik xususiyatlari yomonlashmagan subyektlar uchun yer resurslarini xususiylashtirish
III bosqich	Belgilanmagan muddatda yer resurslarini xususiylashtirish (450-1000 gektargacha)	Belgilanmagan muddatda yer resurslari xususiylashtirish (900-1500 gektargacha)	Uzoq muddatli davrda qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarning texnik xususiyatlari yomonlashmagan va qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligi ortgan subyektlar uchun yer resurslarini xususiylashtirish

Taklif etilayotgan qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni takomillashtirish jarayonida qishloq xo‘jaligi faoliyati yurituvchi subyekt egaligidagi yer maydonining sifat va texnik ko‘rsatkichlari bilan birgalikda, uning iqtisodiy faoliyati natijalari uch yil davomida ketma-ket salbiy tendensiyaga ega bo‘lgan taqdirda uning egaligidagi yer resurslarini auksion orqali boshqa fermer va dehqon xo‘jaliklariga sotish yoki auksion ijobiy tugallanmagan taqdirda yer maydonini qayta davlat tasarrufiga o‘tkazish lozim, deb hisoblaymiz. Bu orqali mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi

²⁶Muallif tomonidan tuzilgan.

keskin ortib, iqtisodiy subyektlar tomonidan yerlardan oqilona foydalanishga bo'lgan intilish kuchayadi.

Natijada yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlar miqdor va sifat ko'rsatkichlarining takomillashuviga erishiladi MDH mamlakatlarida agroklastarlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotini tadqiq etish asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi:

- agroklastarlar faoliyatini boshqarish amaliyotida markazlashtirilgan boshqaruvga xos bo'lgan xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Shuningek, boshqaruv jarayonlarida davlatning aralashuvi nisbatan yuqori hisoblanadi;

- agroklastarlar faoliyatida fermer va dehqon xo'jaliklariga nisbatan innovatsion boshqaruv elementlari seziladi. Bunda davlat tomonidan qishloq joylarda amalga oshirilayotgan innovatsion-investitsion loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi;


- agroklastarlar faoliyati rasmiy va norasmiy (o'zaro kelishuvga asoslangan holda) tarzda tashkil etiladi;

- agroklastar tarkibiga kiruvchi iqtisodiy subyektlar manfaatlarining o'zaro tengligini ta'minlashda nomutanosibliklarning mavjudligi sababli aksariyat holatlarda norasmiy shaklda agroklastar faoliyati yo'lga qo'yiladi va h.k.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Yangi O'zbekistonda agroklastarlar faoliyatini boshqaruvining institutsional asoslari va uning samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlanib, ushbu bobda mamlakatimizda agroklastarlar faoliyatini tashkil etishning huquqiy-institutsional asoslari o'rganilgan, milliy qishloq xo'jaligi rivojlanishida agroklastarlarning o'rni baholangan, agroklastarlar boshqaruvi samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali agroklastarlar egaligidagi yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasi ishlab chiqilib, agroklastar boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ilmiy asoslangan.

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer resurslaridan foydalanishning birlamchi shaklida qishloq xo'jaligi faoliyati yuritishning dehqon va fermer xo'jaliklari shakli uchun xos bo'lgan xususiyatlar mavjud ekanligi aniqlandi. Shu o'rinda aytish joizki, yer resurslaridan foydalanishning mazkur tashkiliy shakli ma'lum bir qishloq xo'jaligi faoliyatiga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish mumkin bo'lib, bugungi kundagi raqobat sharoitida agroklastarlar bilan ma'lum bir turlagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yer resurslaridan foydalanish bo'yicha teng raqobatlasha olmasligi jahon amaliyotidan barchaga ma'lum.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda, keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasini taklif etamiz (5-rasmga qarang). Bunda qishloq xo'jaligi faoliyati yuritayotgan dehqon va fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalashtirish yoki ularni agroklastarlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish talab etiladi.



5-rasm. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali agroklasterlar egaligidagi yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasi²⁷

Shu bilan birgalikda, taklif etilayotgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasiga muvofiq qishloq xo'jaligi subyektlari foyda solig'ini «Qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash» buyudjetdan tashqari jamg'armasiga yo'naltirish orqali ushbu maqsadli fondga jamlangan moliyaviy resurslardan

²⁷Muallif tomonidan tuzilgan.

keyinchalik qishloq xo'jaligi yerlarini holatini yaxshilashda maqsadli foydalanish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu fond mablag'larining kamida 80 foizi aynan qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilashga yo'naltirilishi talab etiladi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali agroklastlarlar egaligidagi yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasini amaliyotga joriy etilishi orqali mamlakatimiz qishloq xo'jaligi yer resurslarini saqlash, ularning unumdorligini oshirish, yer resurslaridan intensiv va oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini keskin oshirilishiga erishiladi.

Mamlakatimizda agroklastlarlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahliliga ko'ra, hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda investitsion loyiha doirasida xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar shaklida agroklastlarlar faoliyatini shakllantirishga ustuvorlik qaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda, qishloq xo'jaligi yurituvchi ayrim iqtisodiy subyektlar o'rtasida ma'lum bir mahsulot turil bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash asosida norasmiy agroklastlarlar shaklida faoliyat yuritish holatlari ham uchraydi.

Aksariyat holatlarda qishloq xo'jaligi yurituvchi subyektlar agroklastlarlar qo'shilishdan ko'ra mustaqil faoliyat yuritishni afzal ko'radilar.


Buning sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:

- boshqaruvdagi mustaqillikning cheklanishi;
- korxonalar faoliyati ustidan tashqi nazoratning kuchayishi;
- agroklastlar faoliyatidan olingan sof foydaning uning ishtirokchilari o'rtasida teng taqsimlanmasligi hisobiga iqtisodiy zarar ko'rish ehtimolining ortishi;
- agroklastlar markaziy korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari uning tarkibiga kiruvchi boshqa qishloq xo'jaligi subyektlari manfaatlariga nisbatan ustun qo'yilishi va h.k.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz amaliyotida agroklastlarlar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish jarayonlarida davlatning ishtirokini kamaytirish orqali ushbu jarayonlarni bozor iqtisodiyoti elementlari bilan to'yintirish talab etiladi.

Shuningdek, davlat kafolati ostida jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hisobiga tashkil etilayotgan agroklastlarlar faoliyati tahlil qilinsa, ular joylashgan hudud bo'yicha nisbatan agroklastlarlar monopolistik xususiyatga ham ega bo'lib borayotgani kuzatiladi. Bunga davlat tomonidan tashkil etilgan agroklastlarlar faoliyatini boshqarishdagi ishtiroki bevosita yoki bilvosita dastaklar orqali himoya qilinishi sabab bo'lmoqda.

Bu esa bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmagan holda hududdagi sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli agroklastlar faoliyatini boshqarishda davlat ishtirokini kamaytirib boshqaruvda integratsion munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini(6-rasmga qarang) takomillashtirish talab etiladi.



6-rasm. Agroklasterning boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi²⁸

Taklif etilayotgan agroklasterning boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amaliyotga joriy etish asosida hududlarda agroklasterning faoliyatini boshqarish amaliyoti yanada takomillashib, hududlardagi qishloq xo'jaligi subyektlarining agroklasterning faoliyatiga integratsiyalashuvi jarayonlari yanada jadallashadi. Ushbu mexanizm universal ahamiyat kasb etganligi sababli uni respublikaning barcha hududlarida qo'llash mumkin. Shu bilan birgalikda, bu turlagi mexanizm agroklasterning tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarining kapitalizatsiyalashuv darajasini oshirib, ichki investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada agroklasterning faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish jarayonlariga xorijiy investorlar mablag'larini jalb etishga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Bu orqali agroklasterning faoliyatidan olingan daromad uning ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanib, moliyaviy barqarorlikka erishilishiga olib keladi.

²⁸Muallif tomonidan tuzilgan.

Jumladan, agroklaster boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi agroklaster faoliyatida innovatsion boshqaruvni muntazam rivojlantirish bilan birgalikda, uning tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi texnik-texnologik uzatishni jadallashtiradi. Bu esa mamlakatimizda “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatimiz amaliyotida agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va boshqarishda tabiiy-ekologik resurslar, jumladan, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilayotganligini inobatga olgan holda, taklif etilayotgan agroklaster boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi asosida qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga ham erishiladi.

Tadqiqot ishining **“O‘zbekistonda agroklaster boshqaruvini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida agroklaster boshqaruvida tabiiy-ekologik resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan, agroklaster boshqaruvi samaradorligini ta‘minlash yo‘nalishlari aniqlangan, agroklasterlar boshqaruvini takomillashtirishning muqobil ssenariyalari ishlab chiqilgan. Jumladan, uslubiy jihatdan agroklasterlar boshqaruvida davlat xususiy sheriklik mexanizmining maqbul varianti sifatida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP)ga ustuvorlik berish taklifi ishlab chiqilib, o‘rta muddatli istiqbolda agroklaster boshqaruvini takomillashtirish hisobiga milliy qishloq xo‘jaligidagi qo‘shilgan qiymat zanjiri va unumdorlik ko‘rsatkichlarining rivojlanishiga oid bazaviy, pessimistik va optimistik prognozlar ilmiy asoslangan.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish orqali qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish hisobiga dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish maqsadi belgilangan.²⁹

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida unumdorligi qayta tiklangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda uslubiy jihatdan agroklasterlar boshqaruvida davlat xususiy sheriklik mexanizmining maqbul varianti sifatida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP)ga ustuvorlik berish talab etiladi. Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida unumdorligi qayta tiklanadigan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda xalqaro “GAEP” tamoyillariga ustuvorlik qaratiladi. Taklif etilayotgan “GAEP” tamoyillari asosida agroklasterlar faoliyatini boshqarishda yer resurslaridan foydalanishda uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida

²⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

o‘zaro ilm fan, innovatsiyalar, moliyaviy imkoniyatlarni integratsiyalash orqali hamkorlik o‘rnatilishi nazarda tutiladi.


Umuman olganda, jahon amaliyotida “GAEP” tamoyillari bu hamkorlikka asoslangan holda davlat va xususiy sektor vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy sheriklik mexanizmi asosida moliyaviy, ilmiy, iqtisodiy, innovatsion, ijtimoiy, ekologik kabi imkoniyatlarini o‘zaro integratsiyalash orqali xo‘jalik faoliyati yuritish shaklini rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan 26 turdagi³⁰ standartlar tizimidan tashkil topgan holda, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligini barqaror sur‘atlarda rivojlantirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishni anglatadi.

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida unumdorligi qayta tiklangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda agroklastlar faoliyatini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bunda agroklastlar tomonidan qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuritishda foydalanilayotgan yer resurslari, jumladan, unumdorligi qayta tiklangan yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha vazirliklar (Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi), ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot institutlari (masalan, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, «O‘zdaverloyiha» davlat ilmiy loyihalash instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi), oliy ta‘lim muassasalari va ushbu sohada faoliyat olib boruvchi davlat tashkilotlari (masalan, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi, Gidrometeorologiya xizmati markazi) o‘rtasida qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer resurslarini himoyalash ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik nuqtayi nazardan davlat-xususiy sheriklik mexanizmini shakllantirishda yuqorida taklif xalqaro “GAEP” standartlarining bazaviy tamoyillariga asoslanish kerak bo‘ladi va quyidagi 7-rasmda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan agroklastlar boshqaruvida yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik jihatdan davlat-xususiy sheriklik mexanizmini amaliyotga joriy etilishi natijasida zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib, sohada foydalanilayotgan ekin maydollarining unumdorligini tizimli monitoring qilish bilan birgalikda, degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlarini holatini yaxshilash va ularning zararlanishini oldini olishga erishiladi. Jumladan, qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer resurslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, jamlash orqali yer resurslari balansi haqidagi to‘liq axborotlarni shakllantirishga erishiladi. Bu esa o‘z navbatida, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

³⁰ Overview of GAEP. Association of Accredited School of Business International. <https://www.aasbi.com/standards/SummaryGAEP-2011-03-05.html>



7-rasm. Agroklaster boshqaruvida yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik jihatdan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi³¹


Agroklasterlar innovatsion boshqaruvida innovatsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot

³¹Muallif tomonidan tuzilgan.

markazlarini tashkil etgan holda ular faoliyati agroklastar boshqaruvdagi innovatsiyalarga bo‘lgan talabga mos keladigan yangi innovatsion ishlanmalarni tuzish, ularni qayta ishlash va amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Shu sababli mamlakatimiz amaliyotida ham aynan agroklastarlar faoliyatida innovatsiyalarni o‘zlashtirish amaliyotiga yaqindan yordam beruvchi ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday markazlarning tashkiliy tuzilishi 8-rasmda keltirilgan tartibda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Agroklastarlar fundamental-innovatsion tadqiqot markazini tashkil etishda quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- qishloq xo‘jaligi fundamental tadqiqotlar markazini tashkil qilish yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan kelishuvlarga erishish;
- markaz konsepsiyasini ishlab chiqish;
- markaz binosining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va uni qurish bilan bog‘liq tegishli tadbirlarni amalga oshirish;
- markazda yuqori texnologiyali zamonaviy laboratoriyalar, o‘simliklar florasi milliy genbanki, strategik tahlil markazlarini tashkil etish;
- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda har yili 25 nafar mahalliy yosh kadrlarni tayyorlash.



8-rasm. Agroklastarlar fundamental-innovatsion tadqiqot markazining tashkiliy tuzilishi³²

Agroklastarlar fundamental-innovatsion tadqiqot markazi faoliyatini moliyalashtirishda dastlab xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, ilmiy faoliyatiga oid davlat dasturlari grantlari va buyudjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu turdagi markazlar o‘zlari tomonidan ishlab

³²Muallif tomonidan tuzilgan.

chiqilgan innovatsion loyihalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini tijoratlashtirishdan olgan daromadlari o'z ixtiyorida qolib, quyidagi yo'nalishlarda xizmat ko'rsatish orqali daromadlari bazasini mustahkamlashlari mumkin bo'ladi:

- agroklaster tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarida innovatsion boshqaruvi, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalarni joriy etish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlar malakasini oshirish;

- agroklasterlar innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha mavjud ehtiyojlarini aniqlash borasida marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

- agroklaster tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasida innovatsiyalarni o'zaro uzatish va ularni o'zlashtirish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish;

- innovatsion mahsulotga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida iste'mol bozorida so'rovnomalar o'tkazish;


- innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha yetakchi xorijiy agroklasterlar amaliyotida foydalanilayotgan innovatsion texnologiyalarni mahalliy agroklasterlar amaliyotiga joriy etish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- xalqaro tashkilotlar, mahalliy darajada e'lon qilingan ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqot ishlarida ishtirok etish va h.k.

Mamlakatimizda agroklasterlar boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi o'zgarishi bilan qishloq xo'jaligidagi qo'shilgan qiymat hajmining ortishiga oid prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqdik (**9-rasm**).

Birinchi ssenariya bazaviy ssenariya bo'lib, bunda so'nggi yillarda mamlakatimizda agroklasterlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar shu yo'sinda davom ettirilishiga asoslanildi. Bazaviy stsenariyalarga ko'ra, agroklasterlar faoliyatida joriy boshqaruv amaliyoti saqlab qolinganda, mamlakat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan jami mahsulot tarkibida ularning ulushi 8,5 foizdan 10,4 foizga yetishi, unumdorlik ko'rsatkichining 2024-2027 yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati 118,5 foizni, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat zanjirining o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi esa 103,2 foizga teng bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Jumladan, agroiqlimiy shart-sharoitlarning yomonlashuvi sharoitida agroklasterlar boshqaruvida turli muammoli holatlarni vujudga kelishini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan pessimistik ssenariyalarga ko'ra jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida agroklasterlarning ulushi 6,9 foizdan 7,1 foizga yetishi prognoz qilinayotgan davrda unumdorlik ko'rsatkichining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 108,6 foizni, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmining o'sish sur'ati esa 99,8 foizga teng bo'lishi ehtimoli mavjud.



9-rasm. Agroklasterlar boshqaruvi amaliyoti takomillashuvi hisobiga qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirining o'sishi sur'ati³³

Optimistik prognozlarni ishlab chiqishda agroklasterlarning innovatsion boshqaruvi amaliyotini takomillashuvi, jumladan, agroklasterlar tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish va ularni ichki tarkibiy qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasida o'zaro uzatish hisobiga innovatsion faollik darajasining ortishiga asoslanildi.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 2024–2027-yillarda agroklasterlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 9,9 foizdan 14,3 foizga yetishi, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjiri bilan unumdorlik ko'rsatkichlarining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari esa mos ravishda 107,4 foiz va 122,4 foizni tashkil etishi mumkinligi aniqlandi.

Umumiy aytish mumkinki, keyingi yillarda mamlakatimizda agroklasterlar boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish, ayniqsa, innovatsion boshqaruvni rivojlantirish orqali uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni o'z muddatidan ilgari samarali hal qilishga erishiladi.

XULOSA

Agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Agroklasterlar – zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi xomashyo bazasi hisoblangan sanoat tarmoqlari, ilmiy tadqiqot institutlari, moliyaviy tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari, jamoatchilik tashkilotlari, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasidagi integratsion munosabatlarga asoslangan ma'lum bir turdagi

³³ Muallif tomonidan tuzilgan.

mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha turli korxonalar va tashkilotlar majmuasidan tashkil topgan hududiy birlashgan xo'jalik yuritish shakli hisoblanadi.

2. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, agroklastlar boshqaruvini tashkiliy ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion va tabiiy-ekologik samaradorlik ko'rsatkichlaridan tashkil topgan baholash uslubiyotidan foydalangan holda baholash lozim, degan xulosaga kelindi; taklif etilayotgan baholash uslubiyati uchun ma'lumotlarni jamlash va ularni hisoblash amaliyoti sodda tartibda tuzilganligi bilan birgalikda, har qanday mamlakat amaliyoti uchun mos kelishi uning boshqa baholash usullaridan afzalligini anglatadi.

3. Agroklastlar faoliyatini tashkil etishning geografik, innovatsion, ixtiyoriylik, "yadro" klaster, davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi va ijtimoiy-texnologik klaster tamoyillari mavjud.

4. Taraqqiy etgan mamlakatlarda agroklastlarlar qishloq xo'jaligi rivojlanishi sharoitida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarmoqli shakli sifatida namoyon bo'lib, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va biznes assotsiatsiyalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

5. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda agroklastlarlar faoliyatini boshqarish amaliyotida markazlashtirilgan boshqaruvga xos bo'lgan xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Shuningek, boshqaruv jarayonlarida davlatning aralashuvi nisbatan yuqori hisoblanadi.

6. Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlarni takomillashtirish jarayonida qishloq xo'jaligi faoliyati yurituvchi subyektlar egaligidagi yer maydonining sifat va texnik ko'rsatkichlari bilan birgalikda, uning iqtisodiy faoliyati natijalari uch yil davomida ketma-ket salbiy tendensiyaga ega bo'lgan taqdirda uning egaligidagi yer resurslarini auksion orqali boshqa fermer va dehqon xo'jaliklariga sotish yoki auksion ijobiy tugallanmagan taqdirda yer maydonini qayta davlat tasarrufiga o'tkazish lozim, deb hisoblaymiz.

7. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan uch yoqlama moliyalashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish sxemasini amaliyotga joriy etish lozim. Bunda qishloq xo'jaligi, faoliyat yuritayotgan dexqon va fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalashtirish yoki ularni agroklastlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish talab etiladi.

8. Agroklastlar boshqaruvida integratsion munosabatlarga kirishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi agroklastlar faoliyatida innovatsion boshqaruvni muntazam rivojlantirish bilan birgalikda, uning tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi texnik-texnologik uzatishni jadallashtiradi. Bu esa mamlakatimizda "Aqlli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

9. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida agroklastlarlar tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishda foydalanilayotgan yer resurslari, jumladan, unumdorligi qayta tiklangan yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda uslubiy jihatdan agroklastlarlar boshqaruvida

davlat xususiy sheriklik mexanizmining maqbul varianti sifatida yer resurslaridan foydalanishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyot (GAEP)ga ustuvorlik berish talab etiladi

10. Agroklaster boshqaruvida innovatsiyalarni o‘zlashtirishda ilmiy-tadqiqot institutlari muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli mamlakatimiz amaliyotida ham aynan agroklasterlar faoliyatida innovatsiyalarni o‘zlashtirish amaliyotiga yaqindan yordam beruvchi ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish lozim.

11. Bazaviy ssenariylarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan jami mahsulot tarkibida ularning ulushi 8,5 foizdan 10,4 foizga etishi, unumdorlik ko‘rsatkichining 2024–2027-yillardagi o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 118,5 foizni, qishloq xo‘jaligida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat zanjirining o‘rtacha yillik o‘sish ko‘rsatkichi esa 103,2 foizga teng bo‘lishi mumkin.

12. Pessimistik ssenariylarga ko‘ra, jami ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida agroklasterlarning ulushi 6,9 foizdan 7,1 foizga etishi, prognoz qilinayotgan davrda unumdorlik ko‘rsatkichining o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 108,6 foizni, qishloq xo‘jaligida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmining o‘sish sur‘ati esa 99,8 foizga teng bo‘lishi ehtimoli mavjud.

13. Optimistik prognozlarga ko‘ra, 2024–2027-yillarda agroklasterlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 9,5 foizdan 14,3 foizga etishi, qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat zanjiri bilan unumdorlik ko‘rsatkichilarining o‘rtacha yillik o‘sish sur‘atlari esa mos ravishda 107,4 foiz va 122,4 foizni tashkil etishi mumkinligi aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУЛЛОЕВ АСЛИДДИН ЖУНАЙДУЛЛОЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ
УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ АГРОКЛАСТЕРОВ**

**08.00.04 – Экономика сельского хозяйства
08.00.13 – Менеджмент**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером **B2023.3.DSc/Iqt620** Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.


Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Бухарского государственного университета. www.buxdu.uz и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net)


Научный консультант:	Хамидов Обиджон Хафизович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Гулямов Саидахрор Саидахмедович доктор экономических наук, академик Кодиров Абдурашид Мажидович доктор экономических наук, профессор Арабов Нурали Уралович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Каршинский инженерно-экономический институт


Защита диссертации состоится 20 июля 2024 года в 16:00 часов на собрании Разового научного совета при Научном совете PhD.03/05.05.2023.1.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете, (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: info@buxdu.uz.


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером 453). (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан 4 июля 2024 года
(Протокол реестра № 5 от 4 июля 2024 года).


Б.Н.Навруз-Зола
Председатель разового научного совета при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор


Д.Ш.Явмутов
Секретарь разового научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, к.э.н., доцент


А.О.Очиллов
Председатель разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое значение придается реализации программ, направленных на эффективное удовлетворение растущих потребностей населения. Агрокластеры позволяют перевести отрасль на путь интенсивного развития за счет реализации масштабных инновационных проектов в сельском хозяйстве»¹. Это повышает необходимость совершенствования методологической базы управления агрокластерами.

В мире в проводимых научных исследованиях по совершенствованию методологических основ управления агрокластерами уделяется внимание обеспечению финансовой устойчивости сельскохозяйственных субъектов, входящих в состав агрокластера, за счет повышения уровня капитализации посредством совершенствования научно-практических основ развития практики инновационного управления агрокластерами, методики оценки эффективности их управления, организационно-экономического механизма управления агрокластерами, оптимизации интеграционных взаимоотношений в них. По этой причине в экономической литературе увеличивается количество научных исследований, направленных на совершенствование научно-методологических основ управления агрокластерами.

В условиях нового Узбекистана учитываются реформы, направленные на усиление специализации производства сельскохозяйственной продукции в регионах посредством кластеризации сельского хозяйства. В частности, как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, "...мы придаем как никогда большое значение модернизации и диверсификации сельскохозяйственного сектора, производству продуктов питания, финансовой поддержке фермеров, кластеров и коопераций"². Данная ситуация свидетельствует о том, что в эффективном использовании потенциала развития сельского хозяйства нашей страны приоритет отдается совершенствованию практики организации и управления деятельностью агрокластеров.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит для реализации приоритетных задач, отраженных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5853 "Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы" от 23 октября 2023 года, №УП-6097 "Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года" от 29 октября 2020 года, №УП-60 "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы" от 28 февраля 2022 года, от 11 сентября 2023 года № УП-158 о стратегии «Узбекистан – 2030», Постановлений №ПП-277 "О мерах по созданию эффективной системы борьбы с деградацией земель" от

¹Ketels Ch., Lindqvist G. and Solvell O. (2012), Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. The Role of Cluster Organizations. The Cluster Observatory. Center for Strategy and Competitiveness. October 2012. 50 p. URL:https://clustercollaboration.eu/sites/default/files/documentstore/Strengthening_Clusters_and_Competitiveness_in_Europe.pdf

²Поздравление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева по случаю Дня работников сельского хозяйства. 15.12.2020. <https://www.navoiwet.uz/tashkilot-hakida/yangiliklar/566-zbekiston-1179ishlo1179-hzhaligi-hodimlariga.html>

10 июня 2022 года, №ПП-216 "О дополнительных мерах по повышению качества и эффективности за счет интеграции науки, образования и производства в аграрном секторе" от 7 июля 2023 года и других нормативно-правовых актах относительной данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики".

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации³. В мире проводятся научно-практические исследования, посвященные совершенствованию организационно-экономических механизмов управления агрокластерами, увеличению масштабов использования достижений науки агрокластеров в сельском хозяйстве за счет повышения эффективности инновационного управления, в частности такие работы проводятся такими видными организациями как Организация Объединенных Наций, Европейская экономическая комиссия, группа Всемирного банка, Европейская кластерная обсерватория, Кластерный центр (Ирландия), Национальный институт стандартов и технологий (США), Министерство переработки пищевых продуктов (Индия).

Проведенные научные исследования по развитию практики управления агрокластерами, совершенствованию организационных аспектов инновационной практики управления агрокластерами: разработка современных методов усиления взаимодействия между наукой и производством в управлении агрокластерами (ОЕСД); повышение эффективности производства продукции с высокой наукоемкостью на основе укрепления интеграционных отношений с научно-исследовательскими институтами, инновационными центрами, высшими учебными заведениями в практике управления агрокластерами (IWGTT); формирование методики

